

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR

Suliyeva Gavhar Bahrom qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 3- bosqich talabasi.*

Telefon raqami :88 080 22 34

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish uchun darslar qanday tashkil qilinishi, eski va yangi ona tili darsliklarida nutq o‘stirishga qanchalik e’tibor qaratilganligi aytib o‘tilgan. Shuningdek, o‘quvchi shaxsining rivojlanishida og‘zaki nutq va yozma nutqning roli alohida ahamiyatga ega ekanligi misollar asosida ko‘rsatib berilgan. Dars davomida o‘quvchi nutqi ustida qanday qilib ishlash mumkinligi kabi muommolarga tavsiya va takliflar berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Nutqiy kompetensiya, og‘zaki va yozma nutq, lingvistik bilim, nutq madaniyati, monologik nutq, ta’lim jarayoni, ko‘nikma, so‘z boyligi.*

Mamlakatimizda tahsil olayotgan o‘quvchilarning har jihatdan bilimli va komil bo‘lishi, o‘rgatilayotgan bilimlarni chuqur egallashi uchun ta’lim sifatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodni ma’nan yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda barcha zarur shart - sharoitlarni yaratishga oid tizimli ishlar olib borilmoqda . O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori ta’limni rivojlantirishga qaratilgan. [O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari. 2017yil,14-son.]

Xususan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yosh avlodning tarbiyasiga alohida ahamiyat bergan holda, quyidagilarni ta’kidlab o‘tganlar: “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”. [Shavkat Mirziyoyev .(30.10.2020.)”Ta’lim sohasidagi muammolar, ularni hal etish va ta’lim sifatini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor” mavzusida.]

Yer yuzida inson zoti yaralibdiki, so‘zga ehtiyoj sezadi. Bir-biri bilan fikr almashish va axborotlarni yetkazish uchun og‘zaki nutqdan foylanadi. Nutq lisoniy birlikning jamiyat a’zolari ongida o‘rnashgan me’yor asosida muayyan moddiy (yozma, og‘zaki va hokazo) shakllardan birida voqelanishidir. [Mengliyev B. (2018) “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslik. “Tafakkur bo‘stoni”, Toshkent.25-bet] Nutq kishilar o‘rtasida aloqa vositasi hisoblanib, inson ongidagi fikrlarni atrofdagilarga his-hayajon yordamida va ta’sirli yetkazish vazifasini bajaradi. Nutqning asosiy sifatlaridan biri ta’sirchanlikdir. Ta’sirchan

nutq, asosan, og‘zaki so‘zlashuvda yuzaga keladi. Nutqning tinglashlilik darajasini oshiruvchi unsurlarga xushmuomalalik, tinglovchilarga hurmat bilan qarash, samimiylilik kabilar kiradi.

Bugungi kunda ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish, tasavvur jihatini kengaytirish, nutqiy kompetensiyalari (o‘qish, yozish, tinglab tushunish, so‘zlash)ni shakllantirishga qaratilgan. Bu esa ona tili o‘quv darsliklaridagi mashq va topshiriqlar orqali amalga oshadi. Ular yozma va og‘zaki nutqni rivojlantiradi. Ma’lumki, har birimiz jamiyat a’zosimiz. Jamiyat a’zolari bilan munosib aloqaga kirishishimiz uchun nutqiy ko‘nikmalarimiz shakllangan bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda ona tilini o‘qitishda yangi usullar va darsliklar ishlab chiqilmoqda. Endilikda o‘quvchilarda tinglab tushunish, yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish kerak. Ona tili – nutq, o‘qish va yozish sohasidagi ko‘nikma va malaka, o‘quvchilar o‘quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o‘qish ko‘nikmalarini egallash bilan birinchi navbatda o‘z ona tilini o‘rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarini o‘qitish vositasi hamdir. Jamiyat tarixi ham tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o‘rganiladi. Darhaqiqat, o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq shakllanishida ona tili darsi muhim ahamiyatga ega.

Shu paytgacha ona tili darslarida nazariylikka, bir xil shakldagi mashq va topshiriqlarni bajarish, qoidalarni yod olishga e’tibor qaratilgan. Ya’ni, faqatgina grammatik bilimlarga urg‘u berilgan. “Til o‘qitishda grammatikaning o‘rni eng ko‘p munozaralarga sabab bo‘luvchi mavzu hisoblanadi. XX-asr boshlarida grammatikani o‘qitish til o‘qitishning ajralmas bo‘lagi edi, shu sababli ham til o‘qitishning boshqa jihatlari e’tibordan chetda qoldi. Agar siz tilning grammatik qoidalarini bilsangiz, unda muloqot ham qila olasiz, degan konsepsiya ustun edi. Ushbu konsepsiya 1970-yillarning boshida jiddiy qarshiliklarga uchradi. Aytildiki, grammatik qoidalarni bilish kommunikativ kompetensiya tushunchasini hosil qiluvchi ko‘plab qismlarning biri xolos”. [Jack C.Richards, Willy, A. Renandya(2002). Methodology in language teaching–Cambridge University Press(Sh. Yo‘ldoshev tarjimasini)] Endilikda ona tili darsliklarida faqat qoidalarga, ma’lum bir qoliqlashgan mashqlarga asoslangan shaklda voz kechilmoqda. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda ona tili darsliklaridagi topshiriqlar nazariy va faqat yozish uchun mo‘ljallanmasdan, ularni fikrlashga, dunyoqarashining o‘shishiga, o‘qib tushunishni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. 2017-yildan boshlab Ona tili darsliklari rangli tarzda chiqarilmoqda. Rasmda berilgan voqelikda nima ifodalanayotganini anglash uchun o‘quvchidan kuzatuvchanlikni talab etadi. Xususan,

6-sinf “Ona tili” darsligining yangi nashrida o‘quvchini mantiqiy fikrlashga undovchi, nutqiy boyligini oshirishga, g‘oyaviy bazasini shakllanirishga oid topshiriqlar berilgan. “Kompyuter grafikasi”, “Import yoki eksport”, “Teleboshlovchi bo‘lib qolsam” kabi o‘quvchining qiziqishini uyg‘otuvchi sarlavha ostidagi mavzular tanlangan va mavzuga kirish qismiga ham o‘ziga yondashilgan. [Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova,

Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov.(T.2022) Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik,86-bet] Masalan, "Teleboshlovchi bo'lib qolsam" nomli mavzuda kirish qismiga o'quvchi shu mavzu asosida qanday ma'lumotlar bilan tanishishi, nimalar o'rganilishi to'g'risida quyidagicha kalit so'zlari berilgan:

- teleboshlovchilik kasbi;
- sohaga doir til birliklari;
- munosabat bildirish va o'z fikrini himoya qila olish;
- rasmiy va norasmiy uslub;
- sifat so'z turkumi;
- yordamchi so'zlar.

Bundan tashqari o'quvchilarda tinglab tushunish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan "Audiomatni tinglang" topshirig'i ham berilgan bo'lib, bunda o'quvchilar matni tinglab, tushunganlarini so'zlab beradilar. Bu xotira charxlashga ham yordam beruvchi vositalardan biridir.

Qolaversa, matn mavzusi berilib, shu matn sarlavhasiga oid so'zlar berilgan. Bu so'zlarni o'quvchi o'zi kerakli qo'shimcha va bog'lovchilardan foydalangan holda bog'lashi kerak. Shu shakldagi topshiriqlar orqali kelishik qo'shimchalarini qo'llash, so'z birikmalari tuzishni o'rganib boradilar. Masalan, "Mening dalam" mavzusidagi matn tuzish uchun quyidagicha savollar berilgan:

1. Dalangizning ko'rinishi qanday bo'ladi?
2. Dalangizda qanday ekinlar bo'ladi?
3. U yerda nimalar bo'ladi?
4. Odamlar dalangiz oldidan o'tayotib nima deyishi mumkin?

Bu savollarga javob yozish jarayonida o'quvchi tasavvuridagi o'z dalasini ta'riflaydi. Shu jarayonning o'zi ham uni kengroq fikrlashga, badiiy jihatdan yondashishga undaydi. Hozirgi kunda Ona tili fanini o'qitishning asosida: "O'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'z g'alar fikrini anglaydigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat, deb belgilangan." [O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi. Ona tili fani bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari. 2017] Shu maqsadni amalga oshirish uchun o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish muhimdir. 10-sinf o'quvchilari uchun chiqarilgan "Ona tili" darsligining yangi nashrida bu jihatga alohida yondashilganligini ko'rishimiz mumkin. Mavzularga grammatik nom berilmasdan, o'quvchining e'tiborini tortadigan, qiziqarli mavzular sarlavhaga qo'yilgan. Shuningdek, lingvistik bilimlar bilan nutqiy bilimlar teng olib borilishiga e'tibor qaratilgan. Oldingi Ona tili o'quv darsliklarida avval grammatik qoida berilib, keyin mashq bajarish an'ana tusiga kirib qolgan edi. Bu usulda mavzuni o'qigan o'quvchida ma'lumot bo'ladi, lekin amaliyotda qo'llanilish tartibi haqida tushuncha hosil bo'lmaydi. Qaysi vaziyatda qanday

usulda gapirish, soʻzlarni tartibli qoʻllash, tinglovchiga fikrini bexato yetkazib bera olish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shular inobatga olingan holda, har bir mavzu soʻngida dolzarb yoki mantiqiy fikrlashga undovchi rasm berilib, shu asosida esse yoki maktub yozish topshirigʻi ham bor. Bunda oʻquvchi mavzuning qanday ahamiyat kasb etishiga qarab, 150 ta soʻzdan 250 tagacha soʻzlar ishtirok ettirishi kerak boʻladi. Bu topshiriq oʻquvchilarni mushohada qilishga undaydi.

Oʻquvchilar nutqini rivojlantirishda bugungi kunda eng koʻp qoʻllanayotgan innovatsion texnologiyalardan foydalanib dars oʻtilsa, samarali boʻladi. Bularga aqlli taxta (Smart Board), elektron holatdagi oʻzbek tilining imlo va izohli lugʻatlarini misol qilish mumkin. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib oʻtilgan darsning koʻrgazmaliligi, samaradorligi ancha ortadi va katta ekranda koʻrsatilgan maʼlumotlar oʻquvchi ongida uzoq muddat saqlanib qoladi. Dars jarayonida oʻquvchilarga maʼlum bir soʻzning maʼnosi yoki imlosi notanish boʻlgan vaziyatda elektron tarzda aqlli taxtada koʻrsatib, ularga tushuncha berilsa dars yanada samaraliroq boʻladi. Bunday ishlarni qilishdan yagona maqsad oʻsib kelayotgan yosh avlodni nutq madaniyati rivojlangan shaxslar qilib voyaga yetkazishdir. Nutq qanchalik sof, ravon boʻlsa, oʻquvchining tafakkuri shuncha keng ekanligidan dalolat beradi. Nutq va fikr bir-biriga chambarchas bogʻliq tushunchalar boʻlib, ularni yakka holda tasavvur etish qiyin. Nutqi ravon, chiroyli, taʼsirli boʻlgan oʻquvchi-yoshlarni yetishtirish ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilarining zimmasidagi vazifa hisoblanadi. Ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilari oʻquvchilar nutqini oʻstirish uchun ularga adabiy til normalari, til vositalari, uslublari, toʻgʻri oʻqish, talaffuz qilish va yozishni oʻrgatishlari lozim.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirishda oliy oʻquv yurtini tugatgan ona tili oʻqituvchisi oʻquv mashgʻulotlarini sof adabiy tilda olib borish bilan bir qatorda, shevalarning asosiy xususiyatlarini ham yaxshi bilishi, shevada qoʻllanayotgan soʻzlarning adabiy tildagi muqobili qaysiligi va uni qoʻllashni oʻquvchilarga oʻrgatishi kerak. Shundagina oʻquvchilar sof adabiy til va shevaning farqiga borib, dialektal xatolarni qoʻllamaydi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, nutq turlari, shuningdek, yozma nutq millatimiz savodxonligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Nutqini tinglovchiga ifodali va taʼsirchan qilib yetkazishda oʻquvchilardan soʻz boyligi zaxirasi mustahkam boʻlishi talab qilinadi. Ona tili darslarida faqat grammatika bilan cheklanmasdan, ularlarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini birdek shakllantirishga harakat qilmoq lozim. Buning uchun esa taʼlim beruvchining oʻzi ham bugungi davr bilan hamnafaslikda ish tutishi, mavzuni ilgʻor pedagogik texnologiyalar yordamida mazmunli qilib yoritib berishi koʻzlangan maqsadga erishishga yanada yaqinlashtiradi. Bu jihatlar eʼtiborga olinsa, biz ona tili taʼlimidan kutayotgan natijalarga erishib, yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qoʻsha oladigan, maʼnan yetuk avlodni voyaga yetkazamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mengliyev B. (2018) “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslik. “Tafakkur bo‘stoni”, Toshkent.25-bet.
2. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa‘dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov.(T.2022) Ona tili: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinf uchun darslik,86-bet.
3. Baxtiyor Mengliyev, Shohrux Abdurahim, Klaraxon Mavlonova, Mansur Siddiqov, Saodat Atoyeva .(2022), Ona tili :Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik.
4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Respublika ta‘lim markazi. Ona tili fani bo‘yicha uzluksiz ta‘limning Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturlari. 2017.
5. Shavkat Mirziyoyev .(30.10.2020.)”Ta‘lim sohasidagi muammolar , ularni hal etish va ta‘lim sifatini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor” mavzusida.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari. 2017yil,14-son.
7. Shttps://doaj.org/article/733b2966bd2a48099a740c07b8476ed5/Nafisa Izzatullayeva,2020